XALQ DEPUTATLARI BERUNIY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Xalqlar Do'stligin ko'chasi, +998 93 200 0009, 230200

2026-yil 4-mart VII-22-26-13-182-K/26 Beruniy tumani

2026-yilda Beruniy tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalar foizini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-,24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonunining 9-ilovasida 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari boshqa aholi punktlari uchun Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im 300 000 (uch yuz ming) so‘m, Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im 150 000 (bir yuz ellik ming) so‘m qilib tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 387-sonli qarorining 2-bandi “v” kichik bandida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol

mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi rahbarlikka olinsin.

3. 2026-yil uchun Beruniy tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari miqdorlari ilovaga muvofiq 20 foizga oshirilsin.

4. Tuman hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i bilan birgalikda mazkur qaror ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror “Xalq minbari” gazetasida hamda tuman hokimligi rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Kengash raisi **SEYTIMOV BAXTIYAR ROZIMOVICH**

Xalq deputatlari Beruniy tumani
Kengashining
2026-yil 4-martdagi
VII-22-26-13-182-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Beruniy tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari

Yig‘im turi	**Bir oyga chegaralangan stavkalar** *(so‘mda)*		
	O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	**Oshiri-layotgan Foiz**	**2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdor**
Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	20	360 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	20	180 000